

ZAMONAVIY YOSHLARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA ULARNI INTELEKTUAL RIVOJLANTIRISHDA CHORA TADBIRLARNING O‘RNI

Yigitaliyeva Gulhayoxon Murotali qizi
ADPI, Tabiiy fanlar fakulteti
Biologiya yo‘nalishi talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada yoshlarni ijtimoiy himoyalash, kasb - hunarga tayyorlash bandligini taminlash hamda iqtisodiy va siyosiy hayotning barcha sohalarida faolligini oshirish haqida berilgan.

Kalit so‘zlar: Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi Xalqaro konvensiya, «Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab - quvvatlash va bandligiga ko‘maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo‘shimcha chora - tadbirlar to‘g‘risida»gi farmoni .

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati sohasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O‘tgan vaqt ichida yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakatimiz istiqboli uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash borasida alohida tizim yaratildi. Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan isloh qilish va yanada rivojlantirish maqsadida 2021-yil mamlakatimizda “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” deb e‘lon qilindi.[1]

Yurtimizda tashkil etilayotgan yangi davlat va nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari, umumta‘lim maktablari, oliy o‘quv yurtlari, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari, zamonaviy IT-parklar, madaniyat muassasalari va sport inshootlari, mutlaqo yangi namunadagi ta‘lim maskanlari -“Prezident maktablari”, “Temurbeklar maktabi”, “Ijod maktablari” bugungi globallashuv sharoitida raqobatga qodir bo‘lgan yetuk kadrlarning yangi avlodini tarbiyalashga xizmat qilmoqda.[2]

Konsepsiya O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, Yoshlar parlamentlari, Yoshlar komissiyasi, yoshlar tashkilotlari, yoshlar siyosati bo‘yicha milliy va xorijiy ekspertlar, xalqaro tashkilotlar, davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, faol yoshlar va boshqa keng ilmiy doiralar va jamoatchilik vakillarining muhokamalari, taklif va tavsiyalari asosida ishlab chiqildi.[3].

«Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab - quvvatlash va bandligiga ko‘maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo‘shimcha chora - tadbirlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni Farmonga ko‘ra, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, ularning bandligiga ko‘maklashish, tadbirkorlik g‘oya va tashabbuslarini rag‘batlantirish, ular munosib daromad olishi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish, bu borada olib borilayotgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqish, shuningdek, 2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasini 2022 yilda “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosini ta‘minlanmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytilish kerakki, yoshlarga sifatli ta‘lim va o‘qitish dasturlari bilan ta‘minlash, ular tanlagan sohada muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirish. Moliyaviy yordamga muhtoj talabalar uchun stipendiyalar yoki grantlar kabi moliyaviy yordam taklif qilish yoshlarga moliyaviy cheklovlar bilan cheklanmasdan maqsadlariga erishishda yordam berish yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu chora-tadbirlarni hayotga tatbiq etish va qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratish orqali biz yoshlarning o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishiga, jamiyatga ijobiy hissa qo‘shishiga yordam bera olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. «O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni.
2. «O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori .
3. «O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish» Konsepsiyasi . Vazirlar mahkamasining 2021 -yil 23 - sonli qarori.
4. «Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab - quvvatlash va bandligiga ko‘maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo‘shimcha chora - tadbirlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni.